

Date: 13th June-2025

KORRUPSIYA – TANAZZULGA ELTUVCHI ILLAT

Gulyamova Yulduz Odilovna

Karmana tuman 2-son politexnikumi huquqshunoslik fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsiya hodisasining ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy oqibatlari tahlil qilinadi. Korrupsiyaning davlat boshqaruvi, jamiyat taraqqiyoti va fuqarolik ishonchiga salbiy ta'siri yoritilib, uni tanazzulga eltuvchi asosiy omillardan biri sifatida baholashga harakat qilingan. Maqolada, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro tajribasi, huquqiy mexanizmlari va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasidagi strategik chora-tadbirlar o'rganiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining korrupsiyani jilovlashdagi o'rni alohida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, tanazzul, ijtimoiy illat, huquqiy islohot, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, ochiqlik siyosati, javobgarlik, profilaktika.

Zamonaviy jamiyatda korrupsiya insoniyat taraqqiyotiga tahdid solayotgan eng xavfli ijtimoiy illatlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. U nafaqat iqtisodiy resurslarning talon-taroj qilinishiga, balki davlat institutlariga nisbatan ishonchning susayishiga, huquqiy tartibning izdan chiqishiga va axloqiy qadriyatlarning yemirilishiga sabab bo'ladi. Aynan shu bois, korrupsiya bugun nafaqat alohida shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari bilan bog'liq muammo, balki tizimli va murakkab ijtimoiy hodisa sifatida baholanmoqda. Tan olish kerakki, korrupsiya rivojlanayotgan mamlakatlarda eng katta to'siqlardan biri bo'lib, davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi, investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi va aholi turmush darajasining izchil o'sishiga to'sqinlik qiladi. Bu illat jamiyatda tengsizlik, adolatsizlik va befarqlik muhitini kuchaytiradi. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurash faqatgina jazo choralari bilan emas, balki institutsional islohotlar, ochiqlik, fuqarolik faolligi va ta'lim orqali amalga oshirilgandagina samarali natijalarni beradi. Ushbu maqolada korrupsiyaning mohiyati, shakllari, salbiy oqibatlari hamda unga qarshi kurashishning kompleks yondashuvlari tahlil etiladi. O'zbekiston misolida olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi islohotlar, huquqiy asoslar va xalqaro tajriba tahlili asosida ushbu illatga qarshi tizimli choralar ko'rib chiqiladi.

Korrupsiya – bu davlat vakolatiga ega shaxslarning o'z lavozimini shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilishi natijasida jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazuvchi ijtimoiy-huquqiy hodisadir. U bevosita siyosiy tizimga, iqtisodiy rivojlanishga va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiya turli shakllarda namoyon bo'ladi: pora olish va berish, xizmat vakolatidan chetga chiqish, tanish-bilishchilik, nepotizm (qarindosh-urug'chilik), davlat xaridlarida noqonuniy harakatlar va byudjet mablag'larining talon-taroj qilinishi shular jumlasidandir.

Korrupsiyaning eng xavfli jihati uning jamiyatda adolat tamoyillarini yemirishidir. Adolat ustun bo'lmagan joyda esa norozilik kuchayadi, fuqarolik faolligi pasayadi va ijtimoiy befarqlik paydo bo'ladi. Bu esa demokratik qadriyatlarning shakllanishiga jiddiy



Date: 13th June-2025

to'sqinlik qiladi. Iqtisodiy jihatdan esa korrupsiya budjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishi, soliq tushumlarining kamayishi, investitsion muhitning zaiflashuvi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining susayishiga olib keladi.

Korrupsiya nafaqat bugungi taraqqiyotga, balki kelajak avlod uchun yaratilayotgan imkoniyatlarga ham putur yetkazadi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarida korrupsiyaning mavjudligi bu sohalarining rivojlanishini to'xtatadi, sifatsiz xizmat ko'rsatish va ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir qator tizimli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. 2017-yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Shuningdek, 2021–2025-yillarga mo'ljallangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasi" korrupsiya xavfini baholash, profilaktika va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi, davlat xizmatlariga ochiq tanlov asosida qabul qilish, elektron hukumat tizimini joriy etish, byudjet mablag'larining onlayn kuzatilishini ta'minlash kabi yangiliklar bu boradagi muhim qadamlar bo'ldi. Ayniqsa, "E-Auksion", "OpenBudget" va "E-anticor" kabi raqamli platformalar orqali davlat faoliyatida oshkoralik va shaffoflik ta'minlanmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, faqatgina qonuniy choralar bilan emas, balki fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtiroki bilan ijobiy natijalarga erishish mumkin. Misol uchun, Skandinaviya mamlakatlarida davlat faoliyatining to'liq ochiqligi, jurnalistlarning erkinligi va fuqarolarning faolligi korrupsiya darajasining minimal bo'lishiga olib kelgan.

O'zbekistonda ham fuqarolik nazoratini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalariga korrupsiya holatlarini yoritishda keng erkinlik berish, yoshlar va talabalarni korrupsiyaga qarshi immunitetga ega shaxs sifatida shakllantirish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy o'quv yurtlarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari" fani o'qitilishi yoshlar ongida bu illatga nisbatan barqaror salbiy munosabatni shakllantiradi.

Korrupsiya – bu bir kunlik yoki faqat jazo chorasi bilan hal bo'ladigan muammo emas. Unga qarshi kurashish uchun har bir sohada – siyosiy, huquqiy, ma'naviy va axborot sohalarida tizimli yondashuv zarur. Davlat organlarining ochiqligi, xodimlar uchun raqobatbardosh ish haqi, xizmatga qabul qilishning shaffof tizimi, faol jamoatchilik nazorati va huquqiy savodxonlik bu borada muhim omillar sanaladi. Shunday ekan, korrupsiya bilan kurashish faqat davlatning emas, balki har bir fuqaroning vijdoniy va ijtimoiy mas'uliyatidir. Tanazzulga eltuvchi bu illatga qarshi butun jamiyat bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsa, adolatli va taraqqiy etuvchi fuqarolik jamiyatini barpo etish mumkin.

Korrupsiya – bu jamiyatni ich-ichidan yemiruvchi, taraqqiyotga to'siq bo'luvchi va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini izdan chiqaruvchi eng xavfli illatlardan biridir. U ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va iqtisodiy tanazzulni kuchaytiradi, davlat boshqaruv



Date: 13th June-2025

tizimini izdan chiqaradi hamda qonun ustuvorligiga putur yetkazadi. Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurash bugungi davrning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar – qonunchilikning takomillashuvi, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlovchi raqamli tizimlar, fuqarolik nazorati va ta'lim orqali profilaktik chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ijobiy siljishlarga olib kelmoqda. Ammo bu illatga qarshi kurash faqat davlat darajasidagi choralargagina tayanib qolmasligi, balki har bir fuqaroning ongli, faol va vijdonli ishtirokiga asoslanmog'i zarur. Fuqarolik jamiyatining yuksalishi, huquqiy madaniyatning oshishi va adolatli boshqaruv tizimi orqali jamiyatda korrupsiyaga qarshi barqaror immunitet shakllanishi mumkin. Yakuniy xulosa sifatida shuni aytilish joziki, korrupsiyaga qarshi kurash – bu taraqqiyot kafolati, adolatli jamiyat poydevori va kelajak avlodga halol, farovon hayot yaratish yo'lidagi eng muhim ijtimoiy burchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021–2025-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–5177-sonli qarori. – URL: <https://lex.uz/docs/5516074>
2. Mavlonov A. The Effect on Anti-Corruption of the Customs Information Systems of the Republic of Uzbekistan // World Customs Journal. – 2023. – Vol. 17, No. 2. – P. 5–12.
3. Urinboyev R. Corruption, Social Norms and Everyday Life in Post-Soviet Uzbekistan. – Helsinki: University of Helsinki, 2017. – 50 p.
4. Kaufmann D., Kraay A., Mastruzzi M. Corruption, structural reforms, and economic performance in the transition economies // IMF Working Paper. – 2000. – WP/00/132. – URL: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2000/wp00132.pdf>